

# **Termiz shahrida 9 qavatli turar joy va 200 o'rinli klinika loyihasi bilan tanishildi**



Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Termiz shahrida qurilishi olib borilayotgan loyihalar bilan tanishish maqsadida "Alpomish" mahallasida bo'ldi. Hududdagi sobiq dehqon va oziq-ovqat bozori o'rnidan "Smart Hous Building" MChJ tomonidan 9 qavatli turar-joy va 200 o'rinli klinika qurilmoqda.

Viloyat rahbari mazkur loyiha doirasida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarini ko'zdan kechirdi. Loyiha tashabbuskori bilan mavjud muammolar xususida suhabatlashdi. Aholining turar-joy va sifatli tibbiy xizmatga bo'lган ehtiyojini qondirishga xizmat qilishi maqsad qilingan ushbu loyihani sifatli amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Shuningdek, shu yerning o'zida "Urgut Termiz Aloqa" MChJ tomonidan barpo etilayotgan ko'p qavatli turar va noturar joy binolari qurilishi loyihasi taqdimot qilinib, loyihadagi mavjud muammolar to'g'risida axborot berildi.

Mas'ullarga har ikkala loyihadagi mavjud muammolarni batafsil o'rganib tegishli tartibda hal etish topshirig'i berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)